Rossiyalik olimlar O.G. Shmeleva va A.V. Lebedevalarning taʼkidlashicha, pedagog xodim taʼlim faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot bilan mehnat munosabatlarida boʻlgan va oʻqitish, tarbiyalash hamda taʼlim faoliyatini tashkil etish boʻyicha vazifalarni bajaradigan jismoniy shaxsdir (Shmeleva & Lebedeva, 2015, p. 34). Mazkur taʼrif pedagog mehnatining koʻp funksionalliligini (oʻqitish, tarbiya, taʼlim faoliyatini tashkil etish) huquqiy jihatdan mustahkamlaydi va ish haqi, ustama mexanizmlarini ishlab chiqishda faqat oʻquv yuklamasi bilan cheklanmaslik zarurligini koʻrsatadi.

Milliy qonunchilik oliy taʼlim muassasalari xodimlarini quyidagi turlarga boʻladi:

oliy taʼlim muassasalarining professor-oʻqituvchilar tarkibi;

oliy taʼlim muassasalarining rahbar xodimlari;

oliy taʼlim muassasalarining boshqa xodimlari;

oliy taʼlim muassasalarining boshqaruv, texnik, xizmat koʻrsatuvchi va oʻquv-yordamchi xodimlari.

Bundan tashqari, taʼlim tashkilotlarining ilmiy xodimlarini ham qayd etish oʻrinlidir.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 164-son qarorida bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari belgilangan professor-oʻqituvchilar tarkibiga – kafedra mudiri, professor, dotsent, katta oʻqituvchi, assistent, oʻqituvchi, oʻqituvchi-stajyor kirishi belgilangan. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi 20-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy taʼlim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi toʻgʻrisida"gi nizomning 2-bandiga muvofiq pedagog xodimlar toifasiga kafedra mudiri, professor, dotsent, katta oʻqituvchi, oʻqituvchi (assistent), oʻqituvchi-stajyor lavozimini egallab turgan shaxslar kirishi nazarda tutilgan.

Mehnatiga yarasha va adolatli haq olish huquqi pedagog xodimlarning asosiy mehnat huquqlaridan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi "Pedagogning maqomi toʻgʻrisida"gi Qonunining 12-moddasi ish haqi tarkibining huquqiy elementlarini sanab oʻtadi, biroq ularning oʻzaro huquqiy nisbati, hisoblash formulasi, minimal va maksimal miqdorlari

qonunda aniq belgilanmagan. Bu huquqiy boʻshliq mehnat huquqlarining kafolatlarini zaiflashtiradi.

Taʼlim tashkilotlarida pedagog xodimlar mehnatiga haq toʻlash institutiga oid qoidalarni tahlil qilish uning uchta darajadan tashkil topganligini koʻrsatadi.

*Bazaviy daraja.* Polsha Respublikasining “Oliy taʼlim va fan toʻgʻrisida”gi Qonunining 137-moddasi bazaviy ish haqi meʼyorlarini imperativ normalar shaklida mustahkamlaydi: universitet professori – professor ish haqining kamida 83 %, dotsent – kamida 73 % (Republic of Poland, 2018, p. 89). “Kamida” (minimum) formulasi akademik lavozimlar uchun majburiy pastki chegarani oʻrnatib, oliy taʼlim muassasalariga bu darajadan yuqorini belgilash boʻyicha ixtiyoriylikni qoldiradi, biroq uni pasaytirishga yoʻl qoʻymaydi. Shu maʼnoda, norma ijtimoiy kafolat (imperativ minimum) bilan institutning ichki mehnat siyosati (dispozitiv oshirish imkoniyati) oʻrtasida muvozanat yaratadi. Bu esa huquqiy texnikada “minimal standart + erkin oshirish” konstruksiyasining amaliy jihatdan samarali qoʻllanishini koʻrsatadi.

Belarus huquqiy tizimida 18-razryadli tarif setkasi va bazaviy stavka mexanizmi qoʻllaniladi. Belarus Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-yanvardagi farmonida byudjet tashkilotlari xodimlariga mehnatga haq toʻlash tarif tizimi asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizim bazaviy stavka va 18-razryadli tarif setkasini qamrab oladi degan norma imperativ tarzda belgilangan (President of the Republic of Belarus, 2019, p. 1). Shuningdek, bazaviy stavka miqdori hukumat qarori bilan davriy qayta koʻrib chiqilishi belgilangan. Bu bazaviy ish haqini hukumat darajasida markazlashtirilgan tartibga solish va davlat kafolatlari tizimini yaratishning huquqiy modelidir.

Oʻzbekiston qonunchiligida “bazaviy tarif stavkasi” tushunchasi ishlatiladi, biroq uning huquqiy mazmuni, belgilash tartibi va masʼul davlat organlari qonunda aniq koʻrsatilmagan. Bu huquqiy boʻshliq huquqni qoʻllashda turli talqinlarga olib keladi.

*Kompensatsion daraja.* Belarus Respublikasi Taʼlim kodeksining 52-moddasida pedagogik xodimlarning huquqlari tizimli ravishda sanab oʻtiladi. Mazkur moddaning $1^{11}$-bandiga muvofiq pedagogik xodimlar oʻquv va uslubiy adabiyotlarni sotib olish xarajatlari boʻyicha har oy kompensatsiya olish huquqiga ega. Shu bandning davomida kompensatsiyani toʻlash tartibi, shartlari va miqdori, shuningdek kompensatsiya toʻlanadigan pedagogik lavozimlar roʻyxati Taʼlim vazirligi tomonidan belgilanishi koʻrsatiladi (Republic of Belarus, 2011, p. 64). Demak, kodeks darajasida subyektiv huquq mustahkamlanadi. Uning amaliy parametrlari esa vazirlikning normativ-huquqiy hujjati bilan aniqlashtiriladi. Natijada huquqning real qoʻllanilishi hamda qamrovi ikkilamchi tartibga solish mazmuniga bevosita bogʻliq boʻladi. Bundan tashqari, mazkur 52-moddaning ikkinchi qismi pedagogik xodimlarning boshqa huquqlari qonun hujjatlari bilan bir qatorda taʼsis hujjatlari, lokal hujjatlar hamda mehnat va fuqarolik-huquqiy shartnomalar orqali ham belgilanishini nazarda tutadi. Bu esa huquqiy tartibga solishning koʻp darajali modelini tasdiqlaydi.

Polsha qonunining 138-moddasi koʻp yillik mehnat staji uchun ustamani aniq miqdoriy koʻrsatkichlarda belgilaydi. Unga koʻra, ustama har bir ishlagan yil uchun bazaviy ish haqining 1 % miqdorida hisoblanadi. U davriy ravishda, yaʼni har oy toʻlanadi hamda toʻlov toʻrtinchi ish yilidan boshlab amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ushbu ustamaning umumiy miqdori bazaviy ish haqining 20 % idan oshmasligi shart (Republic of Poland, 2018, p. 89). Mazkur yondashuv staj omilini ragʻbatlantirishni foizli formula va maksimal limit orqali normativlashtiradi. Bu bir tomondan uzoq muddatli ishlashni qoʻllab-quvvatlasa, ikkinchi tomondan byudjet yuklamasini yuqori chegaralash mexanizmini ham taʼminlaydi.

Oʻzbekiston qonunchiligida pedagoglarni oʻquv jarayonini ta'minlovchi resurslar bilan qoʻllab-quvvatlash gʻoyasi mavjud boʻlsa-da, "birlamchi oʻquv-uslubiy materiallar" atamasining huquqiy mazmuni, tarkibi va ta'minlash standartlari qonun darajasida aniq belgilab berilmagani amaliyotda turlicha talqin hamda notekis ta'minot xavfini kuchaytiradi. Pedagog mehnatini moddiy ragʻbatlantirish va xarajatlarni qoplash masalasida "Pedagogning maqomi toʻgʻrisida"gi Qonunning 12-moddasi ikkinchi qismidagi ustama hamda kompensatsiyalar toʻlanishi mumkinligi fakultativ rejimni mustahkamlaydi. Bu esa kompensatsion toʻlovlarni barqaror kafolatdan koʻra moliyaviy imkoniyat va boshqaruv qaroriga bogʻliq mexanizmga aylantiradi. Fikrimizcha, mazkur konstruksiya "minimal kafolat" va "qoʻshimcha ragʻbat" oʻrtasidagi chegaralar aniq belgilab qoʻyilmagan sharoitda hududlar va tashkilotlar kesimida tenglik hamda shaffoflik standartlariga putur yetkazadi. Shu bois kamida asosiy tushunchalar va minimal ta'minot mezonlarini qonun darajasida aniqlashtirish zarur.

*Ragʻbatlantiruvchi daraja.* Oʻzbekiston Respublikasi "Pedagogning maqomi toʻgʻrisida"gi Qonunining 13-moddasida pedagoglarni ragʻbatlantirishning toʻrt yoʻnalishi belgilangan. Birinchidan, yuqori natijalarga erishgan pedagoglar "Davlat mukofotlari toʻgʻrisida"gi Qonunga muvofiq davlat mukofotlari hamda faxriy unvonlar bilan taqdirlanishi mumkin. Ikkinchidan, xalqaro va respublika fan olimpiadalari gʻoliblarini tayyorlagan pedagoglarga qonunchilikda belgilangan miqdorda mukofot pullari toʻlanadi. Uchinchidan, davlat ta'lim tashkilotlarida byudjet hamda byudjetdan tashqari mablagʻlar hisobidan moddiy ragʻbatlantirishning boshqa turlari belgilanishi mumkin. Toʻrtinchidan, nodavlat ta'lim tashkilotlarida ragʻbatlantirish xususiyatiga ega qoʻshimcha haq va ustamalar muassislar yoki vakolatli shaxslar tomonidan belgilanadi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi 517-son qarori bilan "Respublika oliy ta'lim muassasalarining professor-oʻqituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini byudjetdan tashqari mablagʻlar hisobidan moddiy ragʻbatlantirish tartibi toʻgʻrisida"gi nizom tasdiqlangan. Mazkur nizomga muvofiq, oliy ta'lim muassasalarining professor-oʻqituvchilarini hamda boshqa toifadagi xodimlarini moddiy ragʻbatlantirish pul mukofotlari koʻrinishida, shuningdek mehnat faoliyatida yuqori ijodiy va ishlab chiqarishdagi erishgan yutuqlari uchun oliy ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan asosiy ish haqiga ustama va qoʻshimcha haqlar belgilash orqali byudjetdan tashqari mablagʻlar hisobiga amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlari mehnatiga haq toʻlashda mehnat yuklamasini me'yorlashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Mehnat yuklamasini me'yorlashtirish pedagog mehnatiga haq toʻlash tizimining tayanch huquqiy bazasidir. Belarus Respublikasining Ta'lim kodeksida bu masala markazlashgan tarzda hal qilingan boʻlib, ilmiy yoʻnaltirilgan ta'lim dasturlarini amalga oshirishda Prezident tomonidan boshqacha tartib belgilab qoʻyilmagan boʻlsa, pedagog xodimlar uchun pedagogik va ilmiy faoliyat turlari hamda ularni me'yorlashtirish Ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi, degan imperativ qoida orqali mustahkamlangan (Republic of Belarus, 2011, p. 243).

Rossiya amaliyotida esa O.G. Shmeleva va A.V. Lebedeva professor-oʻqituvchilar mehnat yuklamasining koʻp komponentli tabiatini koʻrsatib, 36 soatlik ish haftasi oʻquv ishlari, ilmiy-tadqiqot, oʻquv-uslubiy, tashkiliy-uslubiy, tarbiyaviy va boshqa ish turlarini bajarishni hisobga olgan holda belgilanishini qayd etadi (Shmeleva & Lebedeva, 2015, p. 35).

Qozogʻistonlik tadqiqotchi D.J. Belxojayeva kompleks yuklama tizimini joriy etish zarurligini asoslaydi. Uning ta'kidlashicha, oʻquv yuklamasidan tashqari ilmiy-tadqiqot ishlari, metodik ishlanmalar, jamoat faoliyati va boshqa pedagogik vazifalarni oʻz ichiga olgan kompleks ish yuklamasini joriy etish kerak. Ushbu tadqiqotchi ish yuklamasi normativlarini


ISSN 2181-8118

oliy ta'lim muassasasining xususiyatlarini inobatga olib, ichki hujjatlarda aniq belgilash lozim degan xulosaga keladi (Belxojaeva, 2024, p. 108).

O'zbekiston Respublikasi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasida pedagoglarni ijtimoiy himoya qilish doirasida ish vaqti va ta'til bo'yicha umumiy kafolatlar belgilangan. Mazkur moddaga ko'ra, pedagoglar uchun qisqartirilgan ish vaqti joriy etiladi, davlat ta'lim tashkilotlari pedagoglariga esa davomiyligi ko'pi bilan 56 kalendar kundan iborat haq to'lanadigan har yilgi asosiy uzaytirilgan mehnat ta'tili kafolatlanadi. Shu bilan birga, pedagoglarning lavozim va toifalariga mutanosib ravishda qisqartirilgan ish vaqtining hamda uzaytirilgan ta'tilning aniq davomiyligi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi nazarda tutilgan. Tadqiqotchining fikricha, mazkur blanket yondashuv ish vaqti me'yorlari va toifalar kesimidagi farqlanishni qonun darajasida aniq normativlashtirmaydi va tartibga solishning real parametrlari ikkilamchi normativ hujjatlarga ko'chib qolishiga olib keladi.

Fikrimizcha, pedagog mehnatiga haq to'lashda odillik va samaradorlikka erishish uchun yuklama tushunchasi faqat auditoriya soatlari bilan cheklanmay, ilmiy-tadqiqot, metodik, tarbiyaviy va tashkiliy vazifalarning ham o'lchanadigan va solishtiriladigan normativ modeliga aylanishi kerak. Buning uchun esa kamida ikki pog'onali huquqiy konstruktsiya optimal hisoblanadi. Ya'ni qonun yoki kodeks darajasida aniq minimal standartlar va kafolatlar mustahkamlanadi. Ijro hokimiyati esa ularni sohaga xos ko'rsatkichlar va hisoblash formulalari bilan aniqlashtiradi. O'zbekistonda aynan birinchi pog'ona, ya'ni qonun darajasidagi minimal standartlarning yetarlicha aniqligi ta'minlanmasa, mehnat yuklamasi va haq to'lash mezonlari oliy ta'lim muassasalari kesimida haddan tashqari farqlanib ketishi, bu esa tenglik, shaffoflik hamda motivatsiya mexanizmlarining barqaror ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasi pedagog mehnatiga haq to'lashning umumiy asoslarini belgilaydi, biroq normativ aniqlik yetarli darajada ta'minlanmagan. Moddada oylik ish haqi bazaviy tarif stavkasi hamda ma'lumot, malaka toifasi (lavozim), ilmiy daraja va unvon kabi omillar inobatga olingan holda hisoblanishi qayd etilgan bo'lsa-da, "bazaviy tarif stavkasi" tushunchasining huquqiy mazmuni, uni belgilash mezonlari va vakolatli subyektlar qonun darajasida aniq ko'rsatilmagan. Bundan tashqari, "qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustamalar" iborasi orqali tartibga solishning muhim elementi ikkilamchi normativ hujjatlarga havola qilinadi. Mazkur qonunning 12-moddasi ikkinchi qismida ustama va kompensatsiyalar "to'lanishi mumkin" tarzida ifodalangani esa kompensatsion to'lovlarning majburiy kafolatdan ko'ra moliyaviy imkoniyat va boshqaruv qaroriga bog'liq fakultativ mexanizm ekanini anglatadi.

Polsha qonunchiligida huquqiy aniqlik yuqori darajada ta'minlangan. Qonunning 137-moddasida bazaviy ish haqi me'yorlari aniq foizlarda imperativ ravishda mustahkamlanadi (Republic of Poland, 2018, p. 89). "Kamida" so'zi minimal huquqiy standartni belgilaydi va oliy ta'lim muassasalariga ushbu me'yorni oshirish huquqini beradi, lekin pasaytirish huquqini bermaydi.

Belarus Ta'lim kodeksida ikki bosqichli huquqiy tartibga solish qo'llaniladi: kodeks imperatativ huquqni belgilaydi, ijro mexanizmi esa vazirlik normativ hujjatiga topshiriladi. Kodeksning 52-moddasida pedagog huquqi imperatativ ravishda mustahkamlanadi (Republic of Belarus, 2011, p. 64), so'ngra huquqni amalga oshirish tartibi pastroq darajadagi normativ hujjatga havola qilinadi, biroq huquqning o'zi kodeks darajasida kafolatlangan.

Tahlil natijalariga ko'ra O'zbekistonda pedagog mehnatini tartibga solishda asosiy muammo shundan iboratki, qonun ko'pincha aniq va ijro etilishi majburiy bo'lgan minimal

standartlarni mustahkamlash oʻrniga umumiy prinsiplarga tayanadi. Konkret mexanizmlar va miqdor parametrlarini esa quyi darajadagi normativ-huquqiy hujjatlarga havola qiladi. Natijada mehnat huquqlarining kafolatlanganlik darajasi pasayadi, chunki imperativ kafolatlar oʻrnida ijro etuvchi organlarning qarori va moliyaviy imkoniyatlarga bogʻliq boʻlgan fakultativ rejim ustunlik qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi toʻgʻrisida"gi Qonunida pedagog mehnatiga haq toʻlash va ragʻbatlantirishga oid bir qator normalar fakultativ konstruksiyada bayon qilingan. Xususan, qonunning 12-moddasi ikkinchi qismida davlat taʼlim tashkilotlari pedagoglariga byudjet va byudjetdan tashqari mablagʻlar hisobidan ustama hamda kompensatsiyalar toʻlanishi mumkinligi koʻrsatilsa, 13-moddaning uchinchi qismida esa moddiy ragʻbatlantirishning boshqa turlari belgilanishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Mehnat huquqining konseptual tamoyillaridan biri boʻlgan adolatli haq olish prinsipi pedagog xodimlar mehnatiga haq toʻlashda barqaror va talab qilib olinadigan kafolatlar mavjud boʻlishini taqozo etadi. Bu esa bir xil mehnat sharoitida turli tashkilotlar va hududlar kesimida toʻlovlar amaliyotining farqlanishiga, shaffoflikning pasayishiga hamda kafolatlarning real darajada zaiflashishiga olib keladi.

Polsha qonunchiligida mehnatga haq toʻlash boʻyicha kafolatlar imperativ tusga ega boʻlib, koʻp yillik mehnat staji uchun ustama "har oy" toʻlanadigan majburiy toʻlov sifatida belgilangan hamda u ishga kirganining toʻrtinchi yilidan boshlab har bir yil uchun bazaviy ish haqining bir foizi miqdorida hisoblanib, 20 foizdan oshmasligi lozim (Republic of Poland, 2018, p. 89). Ushbu qoida stajni ragʻbatlantirish mexanizmini nafaqat prinsip sifatida, balki aniq miqdor va toʻlash davriyligi bilan kafolatlaydi.

Qozogʻistonlik tadqiqotchi D.J. Belxojayeva ragʻbatlantirish tizimining huquqiy kafolatlarini tahlil qilar ekan, oliy taʼlim muassasasidagi toʻlovlar tarkibida "kafolat" va "qoʻshimcha ragʻbat" rejimlarini huquqiy jihatdan ajratish zarurligini amaliy argumentlar bilan asoslaydi. Xususan, muallif oʻqituvchilar mehnatini ragʻbatlantirish tizimida ijtimoiy paket muhim rol oʻynashini koʻrsatadi hamda ijtimoiy toʻlovlar davlat qaroriga koʻra ham, universitet rahbariyati qaroriga koʻra ham taqdim etilishi mumkinligini qayd etadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy toʻlovlar "muhim rol oʻynamaydi" deb hisoblab, buni ular barcha sektorlar uchun majburiy ekani bilan izohlaydi (Belxojaeva, 2024, p. 106). Aynan mana shu farqlash mehnatga haq toʻlash tizimining yuridik aniqligini kuchaytiradi. Chunki kafolatlangan toʻlovlar bilan oliy taʼlim muassasasining ixtiyoriy toʻlovlari aralashib ketganda ragʻbatlantirishning mohiyati xiralashadi, shaffoflik pasayadi va nizolarni keltirib chiqaruvchi subyektiv qarorlar xavfi ortadi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston qonunchiligida minimal davlat kafolatlari va oliy taʼlim muassasasi qoʻshimcha imkoniyatlari oʻrtasidagi chegara aniq boʻlmagan. Bu ikki xil huquqiy rejimni – imperatativ kafolatlar va fakultativ qoʻshimcha toʻlovlarni aralashtirib yuboradi va pedagog huquqlarini zaiflashtiradi.

Mehnat yuklamasini meʼyorlashtirish pedagog mehnatiga haq toʻlashning huquqiy bazasi. Chunki ish haqi mehnat hajmi va meʼyorlariga toʻgʻridan toʻgʻri bogʻliq. Oʻzbekiston qonunchiligida umumiy qisqartirilgan ish vaqti (36 soat) kafolati beriladi. Biroq aniq soatlar, yuklama meʼyorlari va lavozimlar boʻyicha farqlanish mustahkamlanmagan.

Belarus Respublikasi Taʼlim kodeksida mehnat yuklamasini meʼyorlashtirish masalasi vakolatli organga berilgan boʻlsa-da, bu vakolat imperativ shaklda berilgani sababli huquqiy aniqlik mavjud. Kodeksga koʻra, ilmiy yoʻnaltirilgan taʼlim dasturlarida pedagogik va ilmiy faoliyat turlari hamda ularni meʼyorlashtirish Taʼlim vazirligi tomonidan belgilanadi va bu


ISSN 2181-8118

qoida Prezident tomonidan boshqacha tartib belgilangan holatlardan tashqari majburiy hisoblanadi (Republic of Belarus, 2011, p. 243).

Rossiya amaliyotida esa O.G. Shmeleva va A.V. Lebedeva pedagog mehnatining ko‘p komponentli tabiatini normativ e’tirof etish zarurligini ko‘rsatib, professor-o‘qituvchilar tarkibi uchun 36 soatlik ish haftasi o‘quv ishlari bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot, o‘quv-uslubiy, tashkiliy-uslubiy, tarbiyaviy va boshqa ish turlarini ham qamrab olishini qayd etadi (Shmeleva & Lebedeva, 2015, p. 35).

Xulosa shundan iboratki, O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida pedagogning kasbiy faoliyati ta’lim va tarbiya sohasini qamrab olishi e’tirof etiladi, biroq mazkur funksional doira pedagog mehnat yuklamasini me’yorlashtirish hamda mehnatga haq to‘lash mexanizmlarida yetarlicha aniqlashtirilmagan. Natijada pedagog mehnatining amaliy tarkibi, jumladan, auditoriya mashg‘ulotlari, metodik ishlar, tarbiyaviy faoliyat va boshqa qo‘shimcha vazifalar bilan ularga mos ravishda haq to‘lash o‘rtasida normativ uyg‘unlik sust bo‘lib qolmoqda, bu esa huquqiy bo‘shliq va turlicha amaliyot shakllanishi riskini kuchaytiradi.

Polsha, Belarus va Rossiya tajribasi umumiy metodik xulosani beradi. Mehnatga haq to‘lashning adolatliligi hamda mehnat nizolarining oldini olish yuklama institutini faqat auditoriya soatlari bilan emas, balki pedagogning funksiyalar majmui sifatida huquqiy jihatdan o‘lchanadigan va tekshiriladigan me’zonlarga bog‘lashni talab qiladi. Belarus modelining kuchli tomoni vakolatlarning aniq belgilanganligi va me’yorlarning yagona markazdan ishlab chiqilishidadir. Rossiya yondashuvi esa yuklamaning tarkibiy qismlarini konseptual jihatdan to‘liqroq qamrab olishi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston uchun amaliy natija shundan iboratki, agar yuklama turlari va ularga ajratiladigan minimal me’yorlar qonun yoki vakolatli organning normativ hujjatida ochiq ko‘rsatilmasa, ish haqi hisob-kitobi tekshirilmaydigan tus oladi va rag‘batlantirish hamda kompensatsiyalar bo‘yicha subyektivlik tavakkalchilik xavfi ortadi.

Pedagog mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha huquqiy normalarning real ishlashi ularning moliyaviy ta’minoti bilan bevosita bog‘liq. Chunki moliyaviy resurslar yetarli bo‘lmasa, huquqiy kafolatlar amalda deklarativ tusga kirib qoladi. Rus olimlari Y.Y. Mityagin va E.A. Ahmadeyev oliy ta’lim muassasalarida mehnatga haq to‘lashni moliyalashtirishda normativ moliyaviy yuklama ortishining omillarini tahlil qilar ekan, o‘rtacha ish haqining moliyaviy yil davomida notekis o‘sishi rejalashtirilgan moliyaviy-xo‘jalik ko‘rsatkichlaridan og‘ishni kuchaytirishini qayd etadi (Mityagin & Akhmadeev, 2023, p. 5).

Yapon tadqiqotchisi M. Maeda esa tarixiy kesimdagi tahlil natijasida o‘qituvchi tanqisligi doimiy takrorlanib kelganini va buning muhim institutsional sababi sifatida o‘qituvchi ish haqining moliyaviy bazasi beqaror hamda yetarli bo‘lmagani oqibatida o‘qituvchilarni kasbda ushlab qolish va yangi nomzodlarni uzluksiz jalb etish qiyinlashganini asoslaydi (Maeda, 2025, p. 41).

Bu yondashuv O‘zbekiston kontekstida ham metodologik jihatdan dolzarb, chunki “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi prinsip sifatida e’lon qilingan, biroq mehnatga haq to‘lashda ustama va rag‘batlantirishning muhim qismi “mavjud mablag‘lar doirasida” ta’lim tashkilotlarining ixtiyoriga bog‘lanib qoladi.

Shuning uchun ustama va kompensatsiyalar mavjudligi normativ jihatdan tan olingan taqdirda ham, ularning manbalari, byudjet rejalashtirish shakli bilan bog‘lanishi, majburiy minimal darajalari hamda moliyaviy kafolat buzilganda ishga tushadigan nazorat va javobgarlik mexanizmlari yetarli darajada normativlashtirilmasa, huquqni qo‘llashdagi barqarorlik pasayadi.

Pedagog mehnatiga haq to‘lash kafolatlarini norma mavjudligi darajasidan ijrosi ta’minlangan norma darajasiga olib chiqish uchun ta’lim qonunchiligi va byudjet-huquqiy mexanizmlar tutashgan nuqtada aniq moliyaviy arxitektura zarur. Bunga o‘qituvchilar ish haqi fondi bo‘yicha minimal ulush yoki aniq hisoblash formulalarini belgilash, o‘rta muddatli byudjet rejalashtirish bilan uzviy bog‘langan indeksatsiya qoidalarini joriy etish, yil davomida notekis moliyalashtirish xavfini kamaytirishga qaratilgan kassa rejalashtirish mexanizmlari, shuningdek buzilish holatlarida protsessual javobgarlik va samarali nazorat vositalari kiradi. Aks holda kelgusida Oliy ta’lim muassasalari kesimida ish haqi tafovutlari chuqurlashishi, kadrlar qo‘nimsizligi kuchayishi va mehnat nizolari ko‘payishi ehtimoli yuqori bo‘lib qoladi.

Pedagog mehnatiga haq to‘lash tizimida shaffoflik mehnat nizolarini profilaktika qilishning tayanch huquqiy mexanizmi hisoblanadi. Chunki ish haqi hisoblash mezonlari va rag‘batlantirish qoidalari tushunarli hamda tekshiriladigan bo‘lmasa, nizolar tabiiy ravishda kuchayadi. Rossiya Federatsiyasi tadqiqotchilari I.Y. Ilina, N.L. Krasyukova va Y.N. Shedko oliy ta’lim tashkilotlariga mehnatga haq to‘lash qoidalarini mustaqil belgilash vakolati berilgani amaliyotda nizolarga olib kelganini ta’kidlaydi. Buning asosiy omillari sifatida professor-o‘qituvchilar va rahbarlar ish haqi o‘rtasidagi katta tafovut, rahbariyatning ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga yetarli darajada kirishmasligi hamda joriy etilayotgan to‘lov tizimlarining murakkab va shaffof bo‘lmagan tuzilmasi ko‘rsatiladi (Ilina et al., p. 100).

Qozog‘istonlik tadqiqotchi D.J.Belxojayeva universitetlarda mukofotlash tizimini shakllantirish bo‘yicha batafsil metodika yetishmasligini, bu yo‘nalishda bildirilayotgan takliflarning aksariyati to‘liq emasligini hamda norasmiy qoidalarning ustunligi bilan tavsiflanishini qayd etadi (Belxojaeva, 2024, p. 106). Bu yondashuv rag‘batlantiruvchi to‘lovlar bo‘yicha qarorlar oldindan prognoz qilinadigan va tekshiriladigan huquqiy mezonlarga emas, amaliyotdagi norasmiy tartiblarga ko‘proq tayanib qolishini anglatadi. Shuni ta’kidlash joizki, bunday sharoitda mehnatga haq to‘lash tizimini faqat natijalar bilan cheklab qo‘ymasdan, qaror qabul qilish tartibi, mezonlarni ochiq e’lon qilish, hujjatlashtirish hamda apellyatsiya imkoniyatlarini majburiy protsessual standartlar sifatida normativlashtirish mehnat nizolarining oldini olishning muhim huquqiy sharti hisoblanadi.

O‘zbekistonda mehnat nizolarini kamaytirish maqsadida shaffoflikni tavsiya sifatida emas, balki majburiy protsedura sifatida mustahkamlash zarur. Bunda kamida uchta elementni huquqiy standart darajasiga ko‘tarish maqsadga muvofiq: birinchidan, ish haqi va ustamalarni hisoblash formulalari hamda mezonlarini ochiq e’lon qilish majburiyati; ikkinchidan, rag‘batlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishning protsessual tartibi va dalillash standartlari; uchinchidan, ichki komissiya va apellyatsiya bosqichlarini aniq muddatlar bilan belgilovchi nizolarni ko‘rib chiqish reglamenti. Aks holda kelgusida oliy ta’lim muassasalari kesimida ish haqi tafovutlari va norasmiy amaliyotlar chuqurlashib, mehnat nizolari soni hamda o‘zaro ishonchsizlik ortib borishi mumkin.

**Xulosa**

Oliy ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari mehnatiga haq to‘lashni huquqiy tartibga solish mavzusini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar tarkibi, rahbar xodimlari, shuningdek boshqa xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha “lavozim maoshlari tizimi”ni “mehnatga haq to‘lashning razryadli tizimi”ga o‘tkazish taklif etiladi. Bunda oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar tarkibi, rahbar xodimlari, shuningdek boshqa xodimlarining lavozim maoshlarini mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga bo‘lish

orqali tarif razryadlari ishlab chiqiladi. Bunday tarif razryadlarining ishlab chiqilishi Oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq toʻlash toʻgʻrisidagi nizomning 10, 11-bandlarida nazarda tutilgan ish haqi miqdorlari oshirilganda bazaviy lavozim maoshlarini vazirliklarning (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi) qoʻshma qarori bilan oʻzgartirish amaliyotiga barham berib, avtomatik tartibda indeksatsiyalanish imkonini beradi.

2. Oliy ta'lim muassasalarining professor-oʻqituvchilar tarkibi mehnatiga haq toʻlash boʻyicha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlarining “Izohlar” qismida dotsent yoki professor ilmiy unvonini olish uchun bir muddat davomida professor (professor v.b.) yoki dotsent (dotsent v.b.) lavozimida ishlab turishi kerak. Lekin bir muddat professor lavozimiga qabul qilinganda professor unvoniga ega boʻlmagan, biroq fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega boʻlgan, professor lavozimiga bir muddatga qabul qilingan shaxslarga bazaviy lavozim maoshi miqdori fan doktorlari va professor ilmiy unvoniga ega boʻlgan lavozimlar uchun belgilangan miqdorda ish haqi olishi, ya'ni mutanosibdan bir pogʻona yuqori ish haqi olish huquqi belgilab qoʻyilgan. Vaholanki, dotsent lavozimiga bir muddatga qabul qilingan professor-oʻqituvchilarga mos ravishda “dotsent” boʻlimida nazarda tutilgan bazaviy lavozim maoshlari belgilanadi deb koʻrsatilgan. Mazkur qoidaga koʻra, dotsent vazifasini bir muddat bajarishga oʻtgan xodimlarga oshirilmagan pogʻona boʻyicha ish haqi toʻlashda davom ettiriladi. Qonun chiqaruvchi organ har ikki lavozim uchun turlicha yondashuv, nomutanosiblikni bartaraf etishi lozim. Shuningdek, vaqtincha dotsent lavozimini egallagan shaxs uchun ham oshirilgan miqdorda maosh toʻlanishi maqsadga muvofiq.

3. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda ilmiy unvonlar olishda professor yoki dotsent lavozimiga bir muddatga qabul qilish huquqiy mexanizmidan voz kechish lozim. Buning oʻrniga dissertatsiya himoyasidan keyin muayyan muddat ilmiy yoki ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shugʻullanishga oid talablarni qoʻyish maqsadga muvofiq. Chunki bir muddat lavozimda boʻlish ishni vaqtincha bajarishni taqozo qiladi. Bu esa boʻsh ish oʻrni yoki vaqtincha yoʻq boʻlgan xodimning vazifasini bajarib turish uchungina tatbiq etilishi kerak.

## REFERENCES

1. Institute of Macroeconomic and Regional Studies. (2024). *Results of reforms in the field of higher education in Uzbekistan in 2017-2024.* https://imrs.uz/files/news/ru/572706.pdf

2. Gadzaonov, A. A. (2025). Determinanty zarabotnoy platy sotrudnikov rossiyskikh vuzov v usloviyakh effektivnogo kontrakta [Determinants of wages for employees of Russian universities under an effective contract]. *Educational Studies Moscow,* (4), 8–44. https://doi.org/10.17323/vo-2025-18474

3. Shmeleva, O. G., & Lebedeva, A. V. (2015). Oplata truda pedagogicheskikh rabotnikov v organizatsiyakh, osushchestvlyayushchikh obrazovatelnuyu deyatelnost po realizatsii obrazovatelnykh programm vysshego obrazovaniya [Remuneration of pedagogical workers in organizations carrying out educational activities for the implementation of higher education programs]. *Bulletin of the Kazan Law Institute of the MIA of Russia,* (1), 34–38.

4. Belxojaeva, D. J. (2024). *Legal regulation of teachers' labor in higher educational institutions of the Republic of Kazakhstan in the current period.* (Doctoral dissertation). Toraighyrov University.

5. Mityagin, Y. Y., & Akhmadeev, E. A. (2023). Neyavnye drayvery uvelicheniya normativnoy finansovoy nagruzki v ramkakh finansirovaniya oplaty truda v organizatsiyakh vysshego obrazovaniya [Implicit drivers of increasing the regulatory financial burden within the framework of labor remuneration financing in higher education organizations of the Russian Federation]. *Moscow Economic Journal,* (10).

6. Maeda, M. (2025). Recurring teacher shortages: A historical analysis of education policy in Japan. *Educational Studies in Japan: International Yearbook,* (19), 41–51.

7. Ilina, I. Y., Krasyukova, N. L., & Shedko, Y. N. (2025). Oplata truda prepodavateley vuzov v usloviyakh modernizatsii vysshey shkoly: dinamika i differentsiatsiya [Remuneration of university professors in the context of higher school modernization: Dynamics and differentiation]. *Economics, Taxes & Law, 18*(3), 100–111.

8. Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2008, August 1). *Respublika oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida (Resolution No. 164) [On approval of the improved system of remuneration for employees of higher educational institutions of the Republic (Resolution No. 164)].* National Database of Legislation.

9. Republic of Belarus. (2011, January 13). *Kodeks Respubliki Belarus ob obrazovanii (Law No. 243-Z) [Education Code of the Republic of Belarus (Law No. 243-Z)]*. National Center of Legal Information.

10. Republic of Poland. (2018, July 20). *Ustawa z dnia 20 lipca 2018 r. Prawo o szkolnictwie wyższym i nauce* [Act of 20 July 2018 – The Law on Higher Education and Science]. *Journal of Laws of the Republic of Poland.*

11. President of the Republic of Belarus. (2019, January 18). *Ob oplate truda rabotnikov byudzhetnykh organizatsiy (Decree No. 27) [On remuneration of employees of budgetary organizations (Decree No. 27)].* National Internet Portal of the Republic of Belarus.

12. Republic of Uzbekistan. (2020, September 23). *Ta'lim to'g'risida (O'RQ-637-son Qonun) [On education (Law No. LRU-637)].* National Database of Legislation.

13. President of the Republic of Uzbekistan. (2023, September 11). *"O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida (PF-158-son Farmon) [On the "Uzbekistan – 2030" strategy (Decree No. UP-158)].* National Database of Legislation. https://lex.uz/docs/6600413

14. Republic of Uzbekistan. (2024, February 1). *Pedagogning maqomi to'g'risida (O'RQ-901-son Qonun) [About the status of a teacher (Law No. LRU-901)].* National Database of Legislation.

15. Council of Ministers of the Republic of Belarus. (2024, October 30). *O razmere bazovoy stavki (Resolution No. 801) [On the amount of the base rate (Resolution No. 801)].* National Internet Portal of the Republic of Belarus.

16. President of the Republic of Uzbekistan. (2024, November 18). *Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the first joint meeting of the Legislative Chamber and the Senate of the Oliy Majlis [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi qo'shma majlisidagi nutqi].* Official website of the President of the Republic of Uzbekistan. https://president.uz/uz/lists/view/8834

# O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI TAHLILI

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2026-YIL 1-SON

# ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 1

# UZBEKISTAN LAW REVIEW

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 1

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2026
DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.1.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.